PEDAGOGIKA TARIXIDA SHAXSNING UMUMMADANIY RIVOJLANISHIGA OID QARASHLAR VA ULARNING ZAMONAVIY TALQINI

Usmonova Mohichexra Anvarjon qizi
E-mail: mohichehrausmonova18@gmail.com
https://orcid.org/0009-0003-2394-0492
https://doi.org/10.5281/zenodo.23275329

Annotatsiya: maqolada pedagogika tarixida shaxsning ma'naviy-axloqiy kamoloti, madaniy rivojlanishi va ijtimoiy munosabatlariga oid pedagogik qarashlar tahlil qilinadi. Ya.A. Komenskiy, J.J. Russo, va K.D. Ushinskiy merosidagi shaxs tarbiyasi, tabiiy rivojlanish, faoliyat va muhit bilan bog'liq g'oyalar zamonaviy umummadaniy kompetensiya tushunchasi bilan qiyosiy-nazariy jihatdan o'rganiladi. Tarixiy pedagogik qarashlarning bugungi ta'lim nazariyasidagi ahamiyati hamda ularning umummadaniy rivojlanishning mazmunini anglashdagi imkoniyatlari asoslanadi.
Kalit so'zlar: pedagogika tarixi, shaxs rivojlanishi, umummadaniy rivojlanish, umummadaniy kompetensiya, ma'naviy-axloqiy tarbiya, pedagogik meros, madaniyat, zamonaviy pedagogik nazariya.

Аннотация: в статье анализируются педагогические взгляды на духовно-нравственное становление личности, её культурное развитие и социальные взаимоотношения в истории педагогики. Идеи воспитания личности, естественного развития, деятельности и влияния среды в наследии Я.А. Коменского, Ж.Ж. Руссо, и К.Д. Ушинского рассматриваются в сравнительно-теоретическом аспекте в контексте современного понятия общекультурной компетенции. Обосновывается значение историко-педагогических взглядов для современной теории образования, а также раскрываются их возможности в осмыслении содержания общекультурного развития личности.
Ключевые слова: история педагогики, развитие личности, общекультурное развитие, общекультурная компетенция, духовно-нравственное воспитание, педагогическое наследие, культура, современная педагогическая теория.

Abstract: the article analyzes pedagogical views on the spiritual and moral development of the individual, cultural development, and social relationships in the history of pedagogy. The ideas of personal education, natural development, activity, and the influence of the environment reflected in the works of J. A. Comenius, J. J. Rousseau, and K. D. Ushinsky are examined from a comparative and theoretical perspective in relation to the modern concept of general cultural competence. The article substantiates the significance of historical pedagogical ideas for contemporary educational theory and explores their potential for understanding the content of an individual's general cultural development.
Keywords: history of pedagogy, personal development, general cultural development, general cultural competence, spiritual and moral education, pedagogical heritage, culture, contemporary pedagogical theory.

KIRISH

Jamiyat taraqqiyotining turli tarixiy bosqichlarida shaxsni tarbiyalash, uning ma'naviy-axloqiy kamolotini ta'minlash va madaniy qadriyatlarga munosabatini shakllantirish masalalari pedagogik tafakkurning muhim yo'nalishlaridan biri bo'lib kelgan. Pedagogika tarixiga nazar tashlanganda, ta'lim va tarbiya haqidagi qarashlar faqat bilim berish bilan cheklanmaganini, balki insonning jamiyatdagi o'rni, xulq-atvori, dunyoqarashi va boshqa insonlar bilan munosabatini shakllantirishga ham qaratilganini ko'rish mumkin. Shu jihatdan shaxsning umummadaniy rivojlanishiga oid qarashlarni tarixiy-pedagogik nuqtayi nazardan o'rganish zamonaviy pedagogika nazariyasi uchun muhim ilmiy ahamiyat kasb etadi.Umummadaniy rivojlanish shaxsning muayyan bilimlarni egallashi bilangina belgilanmaydi. U insonning axloqiy mezonlarni anglashi, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga munosabati, muloqot madaniyati, ijtimoiy mas'uliyati hamda boshqa insonlarning qarashlariga hurmat bilan yondashishida namoyon bo'ladi. Bunday sifatlar o'z-o'zidan shakllanmaydi; ularning rivojlanishi oilaviy tarbiya, ta'lim muhiti, ijtimoiy munosabatlar va shaxsiy tajriba bilan uzviy bog'liq. Demak, umummadaniy rivojlanishni pedagogik hodisa sifatida o'rganish uchun uning tarixiy ildizlari va nazariy asoslarini tahlil qilish zarur.

Pedagogika tarixida shaxs tarbiyasiga doir qarashlar bir xil mazmunda shakllanmagan. Ayrim mutafakkirlar bolaning tabiiy imkoniyatlarini hisobga olishga urg'u bergan bo'lsa, boshqalari aqliy va axloqiy rivojlanish, faoliyat, mehnat, ijtimoiy muhit yoki tarbiyachining mas'uliyatini asosiy omil sifatida talqin qilgan. Ushbu qarashlar zamonaviy umummadaniy kompetensiya tushunchasi bilan aynan bir xil emas. Biroq ular shaxsning madaniy va axloqiy kamolotini tushunishda muhim tarixiy-nazariy asoslarni tashkil etadi.

Mazkur masalaning dolzarbligi O'zbekiston ta'lim tizimida ham milliy va umuminsoniy qadriyatlarni ta'lim-tarbiya mazmuniga singdirishga alohida e'tibor qaratilayotgani bilan belgilanadi. O'zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentabrdagi O'RQ-637-son "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni 4-moddasida ta'lim sohasining asosiy prinsiplaridan biri sifatida ta'lim va tarbiyaga milliy hamda umuminsoniy qadriyatlarning singdirilganligi belgilangan. Shuningdek, qonunda ta'lim va tarbiyaning insonparvarlik hamda demokratik xususiyati, uzluksizligi va izchilligi ham asosiy prinsiplar qatoriga kiritilgan. Mazkur huquqiy qoidalar shaxsning madaniy rivojlanishi masalasini zamonaviy pedagogik nazariya doirasida o'rganish zaruratini kuchaytiradi [2].

UNESCOning madaniyatlararo ta'limga oid tavsiyalarida ham ta'lim oluvchining madaniy o'ziga xosligini hurmat qilish, madaniy xilma-xillikni anglash va boshqa madaniyatlarga hurmat bilan munosabatda bo'lish muhim tamoyillar sifatida yoritilgan [9]. Bu yondashuv umummadaniy rivojlanishni faqat ma'lum qadriyatlarni o'zlashtirish bilan cheklamasdan, shaxsning turli ijtimoiy va madaniy muhitlarda ongli munosabat o'rnata olish qobiliyati bilan bog'liq holda tahlil qilish imkonini beradi.

ADABIYOTLAR TAHLILI:

Shaxsning rivojlanishi, tarbiyasi va madaniy kamolotiga oid masalalar pedagogika tarixida turli nazariy yondashuvlar asosida yoritilgan. Mazkur masalani tadqiq etishda klassik pedagogik merosni o'rganish bilan bir qatorda, zamonaviy kompetensiyaviy yondashuv va madaniyatlararo ta'limga oid ilmiy qarashlarni ham tahlil qilish zarur.

Ya.A. Komenskiyning “Buyuk didaktika” asari ta’limni izchil tashkil etish, insonning yosh va tabiiy xususiyatlarini hisobga olish hamda ta’lim jarayonini muayyan qonuniyatlarga muvofiq olib borish masalalariga bag‘ishlangan. Komenskiy pedagogik qarashlarida insonni rivojlantirish va tarbiyalash yaxlit jarayon sifatida talqin etiladi. Uning tabiiylik tamoyili zamonaviy umummadaniy rivojlanish tushunchasi bilan bevosita tenglashtirilmasa-da, shaxsning imkoniyatlarini hisobga olish va rivojlanish sharoitlarini pedagogik jihatdan tashkil etish masalalarini tarixiy nuqtayi nazardan tahlil qilishga imkon beradi [3].

J.J. Russoning “Emil yoki tarbiya to‘g‘risida” asarida bolaning tabiiy rivojlanishi, uning yosh xususiyatlarini hisobga olish va tarbiya jarayonida individual imkoniyatlariga e’tibor qaratish masalalari markaziy o‘rin tutadi. Russo bolaning rivojlanishini kattalarning tayyor talablarini mexanik tarzda o‘zlashtirish bilan cheklamaslik kerakligini ta’kidlaydi. Ushbu qarash zamonaviy pedagogikada shaxsning mustaqilligi, individual tajribasi va rivojlanish ehtiyojlarini e’tiborga olish bilan qiyosiy tahlil qilinishi mumkin. Biroq Russoning XVIII asrdagi tarbiya konsepsiyasini bugungi umummadaniy kompetensiya nazariyasi bilan aynanlashtirish tarixiy jihatdan to‘g‘ri bo‘lmaydi [8].

K.D. Ushinskiy pedagogik qarashlarida tarbiyaning xalq hayoti, tili, madaniyati va tarixiy tajribasi bilan aloqadorligi alohida ahamiyatga ega. Uning “Inson — tarbiya predmeti sifatida” asarida insonni tarbiyalash masalasi murakkab va ko‘p qirrali hodisa sifatida yoritiladi. Ushinskiy pedagogik merosini tahlil qilish shaxs kamolotida ijtimoiy muhit, milliy madaniyat va tarbiyaviy tajribaning o‘rnini aniqlashga yordam beradi. Bu jihatlar zamonaviy ta’limda milliy qadriyatlarni umuminsoniy tamoyillar bilan uyg‘unlashtirish masalasi bilan mazmunan bog‘liq [10].Zamonaviy xalqaro ilmiy yondashuvlarda ham madaniyat va ta’lim o‘rtasidagi munosabat shaxs rivojlanishining muhim tarkibiy qismi sifatida ko‘riladi. UNESCOning “Intercultural Education” bo‘yicha tavsiyalarida ta’lim oluvchining madaniy o‘ziga xosligini hurmat qilish, madaniy merosni anglash, turli madaniy qarashlar o‘rtasidagi muloqot va o‘zaro hurmatni rivojlantirishga e’tibor qaratiladi [9].Adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, shaxsning tabiiy rivojlanishi, axloqiy kamoloti, madaniy muhit bilan aloqasi va tarbiyadagi faol ishtiroki turli davrlardagi pedagogik qarashlarda o‘ziga xos tarzda yoritilgan.

TADQIQOD METODOLOGIYASI:

Maqolada pedagogika tarixida shaxsning umummadaniy rivojlanishiga oid pedagogik qarashlar, ularning metodologik asoslari hamda ma’naviy-axloqiy tarbiya bilan uzviyligi nazariy jihatdan tahlil qilingan. Ya.A. Komenskiy, J.J. Russo va K.D. Ushinskiyning pedagogik merosida shaxs kamoloti, madaniy rivojlanish va axloqiy tarbiyaga doir g‘oyalar o‘rganilib, ularning zamonaviy ta’lim jarayonidagi ahamiyati yoritilgan. Shuningdek, xorijiy va mahalliy tadqiqotchilarning ilmiy ishlari tahlil qilinib, tarixiy-pedagogik qarashlarning bugungi ta’lim mazmuni bilan uzviyligini ochib beruvchi xulosa va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

TAHLILLAR VA NATIJALAR:

Mamlakatimizda ta’lim-tarbiya jarayonini takomillashtirish, o‘quvchilarning ma’naviy-axloqiy rivojlanishi va umummadaniy kompetensiyasini shakllantirish masalalari muhim ilmiy yo‘nalishlardan hisoblanadi. Mahalliy tadqiqotlarda umummadaniy kompetensiyani ta’lim mazmuni bilan bog‘liq holda o‘rganish o‘quvchilarning madaniy qadriyatlarni o‘zlashtirishi, ijtimoiy munosabatlarda ishtirok etishi va odob-axloq me’yorlariga rioya

qilishini pedagogik jihatdan tahlil etish imkonini beradi. Ushbu masalani tarixiy-pedagogik meros bilan qiyoslash esa an'anaviy tarbiyaviy g'oyalar va zamonaviy ta'lim talablari o'rtasidagi uzviylikni aniqlashga xizmat qiladi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 79-moddasida "Davlat va jamiyat bolalarda hamda yoshlarda milliy va umuminsoniy qadriyatlarga sodiqlik,mamlakatidan hamda xalqning boy merosidan faxrlanishni, vatanparvarlik va Vatanga bo'lgan mehr- muhabbat tuyg'ularini shakllantirish to'grisida g'amxo'rlik qiladi", - deb qayd etilgan[1]. Bundan ko'rinib turibdiki, bosh qomusimizda ham yosh avlodni umummadaniy kompetensiya asosida tarbiyalash masalasi muhim amahiyatga kasb etgan.

Tatqiqodchi F.Kurbanova esa "Umummadaniy kompetensiya ta'limning ajralmas qismi sifatida" nomli maqolasida umummadaniy kompetensiya haqida kengroq izohlarni talqin etgan : "Umummadaniy kompetensiya – umumiy madaniyat hisoblanib, har qanday madaniyatga xos bo'lmagan shaxslar rivojlanishi mumkin bo'lgan asosiy kompetensiyadir" sifatida talqin etadi[4].

M.S.Nazarovaning fikricha "Milliy va umummadaniy kompetensiya – vatanga sadoqatli, insonlarga mehr-oqibatli, hamda umuminsoniy va milliy qadriyatlarga e'tiqodli bo'lish, badiiy va san'at asarlarini tushunish, orasta kiyinish, madaniy qoidalarga va sog'lom turmush tarziga amal qilish layoqadlarini nazarda tutadi"[5].

Umummadaniy kompetensiyani tarbiyaviy jarayonida shakllantirish bir qancha samarali natijalar beradi. Ayniqsa, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 12 dekabrdagi tasdiqlangan "Uzluksiz ma'naviy tarbiya konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida" VM-1059 sonli Qarorining "Umumiy o'rta ta'lim tizimida ma'naviy tarbiyani amalga oshirish" VI bobi quyidagi boshlang'ich sinflarda inobatga olinishi lozim bo'lgan jihatlar ko'rsatilgan.


Bizningcha, umummadaniy kompetensiya – ona yurtga sadoqatli bo'lish, milliy an'ana va qadriyatlarni e'zozlash, atrof-muhitni muhofaza qilish, kitoblarga mehr qo'yish, kattalarga hurmat, kichiklarga izzatda bo'lish kabi bir qator insoniy fazilatlarni shakllantirishga qaratilgan tarbiyaviy jarayondir.

Pedagogika tarixida shaxsning ma'naviy-axloqiy va madaniy rivojlanishi, avvalo, ta'limning tarbiyaviy maqsadi, axloqiy fazilatlarni shakllantirish va bolaning tabiiy imkoniyatlarini rivojlantirish bilan bog'liq holda talqin qilingan. Ya.A. Komenskiy ta'limning izchilligi, ko'rgazmaliligi va bolaning yosh xususiyatlarini hisobga olishga e'tibor qaratgan bo'lsa, J.J. Russo bolaning tabiiy rivojlanishi, mustaqil tajribasi va qiziqishlarini muhim deb bilgan. I.G. Pestalotssi bolaning aqliy, axloqiy va amaliy rivojlanishini yaxlit jarayon sifatida qaragan, K.D. Ushinskiy esa tarbiyada ona tili, milliy madaniyat va xalq hayotining ahamiyatini asoslagan. Ushbu qarashlarni qiyoslash shuni ko'rsatadiki, klassik pedagogikada ham shaxsni faqat bilim bilan qurollantirish emas, balki uning axloqiy fazilatlari va hayotga munosabatini rivojlantirish masalasi muhim o'rin tutgan.

Zamonaviy pedagogikada mazkur g'oyalar yangi mazmun bilan boyitilib, ta'lim natijalariga kompetensiyaviy yondashuv asosida qaralmoqda. Agar tarixiy pedagogik qarashlarda axloqiy tarbiya, tabiiy rivojlanish, milliy qadriyatlar va ta'limning izchilligi asosiy masalalardan bo'lgan bo'lsa, bugungi yondashuvda o'quvchining egallagan bilimlarini hayotiy vaziyatlarda qo'llashi, mustaqil qaror qabul qilishi, muloqot qilishi va ijtimoiy munosabatlarda faol ishtirok etishi ham muhim natija hisoblanadi. Demak, zamonaviy

kompetensiyaviy yondashuv tarixiy pedagogik g‘oyalarni inkor etmaydi, balki ularni o‘quvchi faoliyati va ta’lim natijalariga qo‘yiladigan talablar bilan to‘ldiradi. Rousseau qarashlarini zamonaviy kompetensiyaviy ta’lim bilan qiyoslagan ilmiy tadqiqotlarda ham tajribaga asoslangan o‘rganish, o‘quvchining faolligi va o‘qituvchining yo‘naltiruvchi roli o‘rtasidagi yaqinlik ko‘rsatilgan.

Boshlang‘ich ta’limda ushbu nazariy qarashlar o‘quvchilarning yoshiga mos matnlar, tarbiyaviy suhbatlar va hayotiy vaziyatlarni tahlil qilish orqali amalga oshirilishi mumkin. Masalan, o‘qish darsida qahramonning xatti-harakatini baholash o‘quvchida axloqiy tushunchalarni rivojlantirsa, guruhli topshiriqlar davomida boshqalarning fikrini tinglash va umumiy qarorga kelish ushbu tushunchalarni amaliy faoliyat bilan bog‘laydi. Bu misol tarixiy pedagogikada asoslangan tarbiyaviy maqsadlarning bugungi ta’limda o‘quvchining amaliy kompetensiyalarini rivojlantirish bilan to‘ldirilayotganini ko‘rsatadi.Tahlil natijasida tarixiy va zamonaviy pedagogik yondashuvlarning o‘zaro bog‘liqligi uchta jihatda umumlashtirildi: birinchidan, har ikki yondashuvda shaxsning har tomonlama rivojlanishiga e’tibor beriladi; ikkinchidan, ta’lim va tarbiyaning o‘zaro aloqasi muhim hisoblanadi; uchinchidan, zamonaviy pedagogika tarixiy g‘oyalarni amaliy faoliyat, mustaqil fikrlash va erishilgan natijalarni baholash bilan boyitadi. Shunday qilib, umummadaniy kompetensiyani shakllantirish tarixiy pedagogik merosning tarbiyaviy mazmunini zamonaviy ta’limning amaliy talablari bilan bog‘lashni taqozo etadi.



XULOSA :

Tarixiy-pedagogik merosni tahlil qilish shuni ko‘rsatadiki, shaxsning umummadaniy rivojlanishi pedagogika tarixining barcha davrlarida ta’lim va tarbiyaning muhim maqsadlaridan biri bo‘lib kelgan. Ya.A. Komenskiy, J.J. Russo va K.D. Ushinskiy qarashlarida shaxs kamoloti, axloqiy tarbiya, individual xususiyatlarni hisobga olish hamda

milliy-madaniy qadriyatlarni o‘zlashtirish masalalari alohida o‘rin egallaydi. Mazkur g‘oyalar zamonaviy pedagogikada ham o‘z ahamiyatini saqlab qolgan bo‘lib, bugungi kunda ular kompetensiyaviy yondashuv, mustaqil fikrlash, ijtimoiy hamkorlik va bilimlarni amaliy faoliyatda qo‘llash kabi yo‘nalishlar bilan boyitilmoqda. Demak, tarixiy va zamonaviy pedagogik qarashlar o‘rtasidagi uzviylik shaxsni har tomonlama kamol toptirish maqsadida namoyon bo‘lsa, ularning farqi ushbu maqsadga erishish usullari va ta’lim natijalarini belgilash mezonlarida ko‘rinadi. Shu bois tarixiy-pedagogik merosni zamonaviy nuqtayi nazardan o‘rganish shaxsning umummadaniy rivojlanishiga oid nazariy qarashlarni chuqurlashtirish, milliy va umuminsoniy qadriyatlar uyg‘unligini ta’minlash hamda ta’lim-tarbiya jarayonini takomillashtirish uchun muhim ilmiy-nazariy asos bo‘lib xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 12-dekabrdagi tasdiqlangan “Uzluksiz ma’naviy tarbiya konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” VM-1059 sonli Qarori. https://lex.uz/ru/docs/-4676839
2. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni. 2020-yil 23-sentabr, O‘RQ-637-son. — https://www.lex.uz/uz/doc-passport/-5013007
3. Barrett, M. et al. Reference Framework of Competences for Democratic Culture. Volume 1: Context, Concepts and Model. — Strasbourg: Council of Europe, 2018.
4. Kurbanova F. Umummadaniy kompetensiya ta’limning ajralmas qismi sifatida. “Ta’lim, fan va innovatsiya” jurnali. 2-son. 2023 y. 73-75 b.
5. Nazarova M.S. “Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining milliy va umummadaniy kompetensiyasini shakllantirishda o‘qish darslarining roli”. Мировая наука.1(46). M: 2020. 22-25 b. https://cyberleninka.ru/article/n/boshlang-ich-sinf-o-quvchilarida-milliy-va-umummadaniy-kompetensiyani-shakllantirishda-o-qish-darslarining-roli/viewer
6. Pedagogical Heritage of Great Educators and Its Influence on Modern Educational Systems (Comenius, Pestalozzi and Ushinsky). — 2025. — DOI: https://doi.org/10.71337/inlibrary.uz.tafps.60581
7. Rousseau, J.-J. Émile, ou De l’éducation. — 1762.
8. Sierra-Arizmendiarrieta, B., Pérez-Ferra, M. Education in J.J. Rousseau: a methodological antecedent of competence based teaching // Revista Complutense Educación-2015. — DOI: https://doi.org/10.5209/rev_RCED.2015.v26.n1.42646
9. UNESCO. Global Citizenship Education: Topics and Learning Objectives. — Paris: UNESCO, 2015. — ISBN 978-92-3-100102-4.
10. Ushinskiy, K.D. Человек как предмет воспитания: Опыт педагогической антропологии. — Санкт-Петербург, 1868–1869.